

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SO‘Z YASASH USULLARI ORASIDAGI O‘XSHASHLIKLAR VA FARQLAR

*Andijon davlat chet tillari instituti
Nemis tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi dotsenti N.M.Qodirova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillarida so‘z yasash usullarining o‘xshash va farqli *jihatlari* haqida so‘z yuritilgan.

Abstract: This article talks about the similar and different aspects of word formation methods in German and Uzbek languages.

Аннотация: В данной статье говорится о сходстве и различиях способов словообразования в немецком и узбекском языках.

Kalit so‘zlar: so‘z ot, fe‘l, yasovchi, turkum, fonologik, birlik qo‘shimcha.

Key words: noun, verb, formative, category, phonological, singular suffix.

Ключевые слова: существительное, глагол, формообразователь, категория, фонологический, суффикс единственного числа.

So‘z yasalishi yuqorida ham ta‘kidlab o‘tilganidek, frazeologiya bilan bir qatorda leksikologiyaning bir qismi bo‘lib, shu bilan birga u o‘z tadqiqot doirasida grammatika bilan morfologiya va sintaksis bo‘limlarida ham to‘qnashadi.

Chunki yangi so‘z yasalishi davomida ma‘lum qoidalarga bo‘ysunadi. Grammatika esa har bir tilda qoidalarni qo‘yadi. Bu yopiq sistema.

So‘z yasalishi lingvistik ijodiyot mahsuli bo‘lib, cheklangan qonun-qoidalar bilan birga cheksiz kombinatsiyalar mavjudligi bu ochiq sistema hisoblanadi. So‘z yasalishi o‘zaro so‘zlarning ma‘nolari bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ham so‘z yasalishi bevosita semantika bilan ham bog‘liqdir.

Har ikki tilda ham yani nemis va o‘zbek tillarida so‘z yasalishi deganda oldin mavjud bo‘lgan namuna va modellardan foydalanib, so‘z yasash tushuniladi. So‘z fonologik birlik sifatida ikki yoki undan ortiq fonemalardan tashkil topadi.

Morfologig nuqtai nazardan esa u ikki yoki undan ortiq morfemalardan tashkil topadi. Har ikki tilda ham so‘z yasalishi usullari deyarli bir xil. Asosan quyidagi 5 usulda yasaladi:

1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali. Bunda ot, sifat, fe‘l, ravish turkumiga oid so‘zlar yasaladi. son va yordamchi so‘zlar yasalmaydi.

Ot: der Arbeiter – ishchi, Fe‘l: arbeiten- ish~~lamoq~~

2. So‘zlarni qo‘shib, juftlab so‘z yasash, bunda qo‘shma va juft so‘zlar yasaladi:

Stock-finster qop-qorong‘u, Misch-wald aralash-o‘rmon

3. Qisqartirish yo‘li bilan

Bunday so‘zlar qisqartma so‘zlar deyiladi. Bu asosan otlarda uchraydi.

1. Faqat so‘zlarning bosh qismini olish orqali:

Ober(kellner) – Ober, Universität-Uni

Bu usul o‘zbek tilida juda kam uchraydi.

2. So‘zning ohirgi qismini olib qisqartirib so‘z yasash: (Omni)bus-Bus

3. Qo‘shma so‘zning bosh va oxiri olinib, o‘rta qismini tushirib qoldirish orqali:

Unter-grund-bahn U-Bahn

Qisqartma so‘zlarning yana bir turiga esa so‘zlarning faqat bosh harflarini olish orqali so‘z yasash kiradi:

Elektron hisoblash mashinasi – EHM, Europäische Union – EU

4. So‘zlarni bir turkumdan boshqa turkumga o‘tkazish orqali

Masalan: Sifat – otga, Fe‘l- otga, Das Schreiben- Yozish, Das Lesen- O‘qish

Har ikki tilda ham boshqa turkumga koʻchgan soʻzlarning maʼnosi va gapdagi vazifasi ham oʻzgaradi.

5. Soʻzlarni takrorlash orqali. Bunda tilda mavjud boʻlgan soʻz takrorlanib yangi soʻz yasaladi.

Masalan: Kuckkuck – nemis tilida, Manman-oʻzbek tilida

Shu oʻrinda oʻzbek tilida kam uchraydigan, lekin nemis tilida muhim ahamiyat kasb etuvchi qoʻshimcha yani Fügung xususida qoʻshma soʻz yasalayotganda ushbu soʻzlar orasiga qoʻshiladigan qoʻshimchaga toʻhtalib oʻtishni zarur deb bilaman.

Ushbu qoʻshimcha nemis tilida Fügung, Zeichen yoki Interfixe deb nomlanib, u quyidagicha boʻladi:

Bundeskanzler –des Bundes Kanzler, Konigshof- des Konigs Hof

Herzensfreude-des Herzens Freude

Koʻp hollarda qoʻshma soʻzlar mustaqil ravishda mos sintaktik konstuksiyadan holi ravishda yasaladi:

Bishofskonferenze- Konferenz mehrere Bishofe-Bishofenkonferenz

Bu yerda qoʻshimcha faqat soʻzlarni birlashtirmoqda. Uning xech qanday maʼnoviy ahamiyati yoʻq.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, albatta oʻzbek va nemis tillaridagi soʻz yasalişida koʻplab mutanosibliklar mavjud, shu bilan birga farqlar ham. Bunga asosiy sabab, bu soʻzsiz oʻzbek va nemis tillarining boshqa – boshqa til oilalariga mansubligida boʻlsa, oʻxshashligiga sabab tili, millatidan qatʼiy nazar insoniyat oʻz sivilisatsiyasi davomida fikrlashi, hayot dunyosining oʻxshashligidadir. Ushbu hodisani chuqurroq tahlil va tadqiq qilish uchun albatta tillarning taraqqiyoti tarixi, uni qachondan boshlab mustaqil til sifatida shakllanganligi, qaysi davlat mustamlakasi boʻlganligi yoki qaysi davlat bilan chegaradoshligi kabi muhim faktorlarning ahamiyati juda kattadir. Masalan oddiy misol:

Rus tuzimi ostida davlatimiz uzoq vaqt mustamlaka boʻlgani bois, bizga koʻp ruscha soʻzlar shu qadar singib ketganki, biz u soʻzlarni huddi oʻzbekcha soʻzdek tilimizga qabul qilganmiz va istemol qilamiz. Nemis tiliga esa hozirgi kunda ingliz tilining taʼsiri juda katta boʻlmoqda, hatto yoshlar orasida Denglisch-deutsch\englisch degan yangi til paydo boʻlgani va koʻplab nemis soʻzlarining oʻrniga ingliz soʻzlari egallab olgani fikrimizning yorqin misolidir.

Yana yuqoridagi masalaga nemis va oʻzbek tillaridagi soʻz yasalişini qiyoslashga qaytadigan boʻlsak,

Nemis tilida shunday old qoʻshimchalar borki, u bir vaqtning oʻzida juda koʻp vazifalarni bajarishi maʼnoviy turfalikka ega boʻlishi mumkin. Bu biz chet tili oʻqituvchilariga yanada koʻproq qiyinchiliklar tugʻdiradi. Bundan soʻz yasovchi vosilardan biri bu- ver-prefiksidir:

-,werden“ deadjektivisch: verfaulen, verjungen, vergrößern...

-,machen“ deadjektivisch: veranschaulichen, verstärken...

-,werden“ denominal: vernarben, verdampfen ...

-,werden“ lokal-denominal: vereisen...

-,unzugänglich machen| Handlung“ deverbale: verschrauben, verschließen

-,umkommen“, dedenominal: verhungern, vergiften...

-,aufhören“ deverbale: verblühen, verhallen...

Til oʻrganishda soʻz yasalişini muhim rol oʻynaydi. Chet tilining tarkibida soʻzlardagi soʻz yasalişini mukammal oʻrganish – bu tilni yuksak darajada egallashga erishishdir, chunki soʻz yasalişini chet tilini oʻrganishning eng murakkab aspektlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, 2000

2. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Sharq, Oliy ta’lim meyoriy hujjatlar to’plami, 1997
3. O.I.Moskalskaja. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. M., 1983
4. T. Z. Mirsoatov. Deutsche Gramatik. Morfologiya. Toshkent o`qituvchi, 1974
5. ҚОДИРОВА, Н. М. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан*, (2), 85-99.